

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 11

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ..... 11-14

*Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich*

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ..... 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ..... 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ..... 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ..... 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимаҳаматович*

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 63-70

*Shao Junling*

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI ..... 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ..... 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING .....	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI .....	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH .....	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS .....	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH .....	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI .....	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI .....	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОҢДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN .....	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

### 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI .....	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI .....	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ .....	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ .....	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI .....	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI .....	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ .....	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ .....	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI .....	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI .....	293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*  
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING  
 MAQSADI ..... 305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*  
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR  
 TIZIMIDAGI O’RNI ..... 312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*  
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL  
 XUSUSIYATLARI ..... 321-326

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva*  
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

*Olga Filippova*  
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..... 333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*  
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH  
 MASALALARI ..... 346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*  
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..... 352-357

*Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi*  
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING  
 QO’LLANILISHI ..... 358-362

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Tўраев Сардор Абдихаким ўғли*  
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ  
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..... 363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*  
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ  
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..... 372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*  
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ  
 ХУСУСИДА ..... 378-385

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*  
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT  
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..... 386-390



<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH .....	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES .....	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV .....	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI .....	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI .....	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI .....	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI .....	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS .....	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH .....	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI .....	479-484

---

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH .....	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH .....	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI .....	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI .....	519-525

09.00.00- Фалсафа фанлари

**Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

O'zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Email: [hayitxon.ismoilova@bk.ru](mailto:hayitxon.ismoilova@bk.ru)

**FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING  
TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOYIY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH  
XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada Farg'ona vodiysining geografik joylashuvi, vodiy oila urf-odatları va qadriyatlarining o'ziga xos milliy mental xususiyatlari bayon qilingan. Vodiy turmush-tarzi, oila urf-odatları va qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy jarayonlarda namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy manbaalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, vodiy, urf-odat, qadriyat, axoli, etnik jarayonlar, siyosat, mustaqillik.

**Ismailova Khaitkhan Makhammadjonovna**

Andijan Institute of economics and construction

Department of Uzbek language and social sciences, senior teacher

**TRANSFORMATION OF FAMILY TRADITIONS AND VALUES IN THE FERGHANA VALLEY  
AND FEATURES OF ITS MANIFESTATION IN SOCIAL PROCESSES**

**Abstract.** The article describes the geographical location of the Fergana Valley, specific national mental characteristics, family traditions and values of the valley. Based on scientific sources, the transformation of the valley way of life, family traditions and values and its manifestation in social processes is analyzed.

**Key words:** Fergana Valley, valley, tradition, values, population, ethnic processes, politics, independence

**Исмаилова Хайтхан Махаммаджонова**

Андижанский институт экономики и строительства

Кафедра узбекского языка и социальных наук

старший преподаватель

**ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ  
И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ПРОЯВЛЕНИЯ В СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ**

**Аннотация.** В статье описаны географическое положение Ферганской долины, специфические национальные ментальные особенности, семейные традиции и ценности долины. На основе научных источников проанализирована трансформация долинного образа жизни, семейных традиций и ценностей и ее проявление в социальных процессах.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, долина, традиция, ценности, население, этнические процессы, политика, независимость

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N36>

**Kirish.** Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoda eng ko'p aholi zichligiga ega xudud hisoblanadi. Vodiyning Markaziy qismini O'zbekistonning eng zich joylashgan viloyatlari (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari) chekka qismlari Qirg'izistonning Jalolobod, O'sh va Botken viloyatlari, Tojikistonning So'g'd viloyati hududlari egallaydi. XVIII-XIX asrlarda vodiy Qo'qon xonligining markazi bo'lgan, keyinchalik, 1876 yilda Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan. XX asr ohirlariga kelib Chor Rassiyasining parchalanishi davlatlar mustaqillikka erishishi sabab xududlar ajrala boshladi. Farg'ona vodiysi uch davlatning o'ziga xos siyosati, qonunlari bilan shakllangan. 1991 yildan uch davlatning mustaqilligi va tashkil topishi bilan chegaralar va bojxona postlari uchta zonaning o'zaro izolyatsiyasini kuchaytirdi. Shu bilan birga Farg'ona vodiysida azaliy do'stlik, oila, diniy va savdo aloqalari avvalgidek kuchli bo'lmasada saqlanib qoldi. Bu ayniqsa, vodiyning g'arbiy sektorida O'zbekiston bilan Tojikiston, sharqda qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasidagi o'zaro oila aloqalarida namoyon bo'ladi.

Sovet hokimiyati parchalanishi sabab chegaralar ajratilishi, davlatlar bo'linishi yuzaga keldi.

1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Farg'ona vodiysi Andijon Farg'ona Namangan viloyatlari etib belgilandi.

Farg'ona vodiysining o'ziga hos iqlimi, geografiyasi, aholining turmush-tarzi, diniy e'tiqodi, bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kabi o'ziga xos jixatlari sabab ko'pchilik tadqiqotchilarda doim katta qiziqish uyg'otib kelgan.

Farg'ona vodiysining geografik joylashuvi, inson yashashi uchun zarur barcha ozuqa manba bor ekanligi doimo tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otgan.

Bu yerda deyarli barcha turdagi tabiiy landshaftlar, qumtepalar, alp o'tloqlarini uchratish mumkin. Vodiy quruq iqlimi kontinentalligi bilan ajralib turadi. Baland tog 'tizmalari suv bilan to'yingan havo uchun tabiiy to'siq hosil qiladi. Vodiy dalalarga yomg'ir tushishiga to'sqinlik qiladigan massalar borligiga qaramay dehqonchilik ham, chorvachilik ham keng rivojlangan. Vodiy bo'ylab Sirdaryo, Amudaryo va Norin daryolari oqib o'tadi. Tog'larda archa, do'lana va boshqa meva va rezavorlarni uchratish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Farg'ona vodiysi turmush-tarzida diniy qadriyatlarining o'rni katta bo'lib, qadimdan hozirgacha shakllanib kelgan oila urf-odat va qadriyatlar tizimida namoyon bo'ladi.

Qadimgi ibtidoiy jamoa dinlaridagi diniy qadriyatlar milliy qadriyatlarda aks etayotganligini ko'rish mumkin. Animizm, Fetishizm, Totemizim dinlaridan saqlanib qolgan ayrim odatlar hozirda ham oilaviy munosabatlarda aks etmoqda. Jumladan, Farg'ona vodiysida uy ilonlari, ayniqsa, oq ilon mo'tabar sanalgan. Xonadonda, xovlida oq ilon paydo bo'lishi qut-baraka va yaxshilikdan dalolat beradi. Shu sababli oq ilonni ko'rgan kishilar uning ustiga un sepib, kosada sut qo'yanlar.

Baliq ibtidoiy kishilar ongida g'ayritabiiy xodisa, atrofini yovuz ruxlardan tozalovchi, odamlarga tetiklik, kuch va g'ayrat ato etuvchi iloxiy jonzot timsolida gavdalangan. Shu sababga binoan qavmlar orasida o'zi bilan bog'liq turli xil urf-odat, udumlar tizimining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan[2.30].

Avestoda oilaviy urf-odat va qadriyatlarga aloxida e'tibor qaratildi. Oiladagi er va xotinning o'rni, vazifa va majburiyatlari qat'iy belgilangan bo'lib unga hammaning amal qilishi majbur. Bundan tashqari farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi rishta ham muqaddaslashtirilgan. Sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish va ularni parvarishlab boqish yovuz ruxlardan himoya

qilish har bir ota-onaning majburiyati hisoblangan. Xomilador ayol bilan tug'ilajak bolani yovuz ruxlardan himoya qilish maqsadida turli urf-odatlar qo'llanilgan. Ya'ni xomilador ayolning qorong'i (oqshom)da yolg'iz yurishi ma'n qilingan; xomilador ayolga bolasi o'lib qolgan yoki tug'maydigan xotinlar izini bosish ta'qiqlangan. Ayollar ushbu ko'rsatmalarga amal qilmasa tug'ilajak bolasiga ziyon yetishi mumkinligidan qattiq qo'rqqanlar. Bundan tashqari farzand dunyoga kelganida qattiq nazorat ostida chilla saqlaganlar.

Yurtimiz hududiga islom dini kirib kelishi munosabati bilan Farg'ona vodiysi oila munosabatlarida otashparastlik dini va undagi oilaviy qadriyatlar o'zgardi. Hozirda esa ushbu qadriyatlarning aksariyati ahamiyatini yo'qotgan. Islom ta'limotiga asosan, er-xotinlik aloqasi nikohlanmoqchi bo'lgan ikki tarafdin birining nikohlanish rag'batini bildirishi va ikkinchisining o'sha rag'batni qabul qilishi ila yuzaga chiqadi[8.528]. Ya'ni nikoh ikki tarafning roziligi asosida quriladi. Nikoh aloqasi haqida Qur'oni Karimda oyatlar, Rasululloh sallallohu alayhi vassallamning hadislarida o'nlab ta'limotlar hamda Islom fiqhida qator hukmlar keltirilgan[8.528]. Unga ko'ra, oila a'zolarining oiladagi huquq va burchlari qat'iy belgilab qo'yilgan.

Islom dini vodiy hayoti va turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila urf-odat va qadriyatlarini shar'iy aqidalar asosida tartibga soladi. Unga ko'ra oilada otaning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ota oila boshi, oilaning moddiy va ma'naviy ta'minotchisi, jamiyat va davlat boshqaruvchisi, oila va jamiyatda hukm chiqaruvchi va qaror qabul qiluvchi yagona insondir. Hadisi sharifda keltirilishicha "Er kishi o'z ahli baytida rahbardir va u o'z qo'l ostidagidan so'ralur[8.528]". Ya'ni, ota bo'lishlik buyuk sharaf bo'lib, oila a'zolarining boshlig'i, oilaning boshqaruvchisi hisoblanadi. Oila a'zolari har bir ishlarini oila boshlig'idan so'rashi, o'zaro maslahatlashishi ota rozi bo'lgandagina biror ishga qo'l urushi nazarda tutiladi. Oilada otaning huquqlari bilan birgalikda majburiyatlari ham mavjuddir. Ota oila a'zolarini moddiy va ma'naviy ta'minlamog'i shart hisoblanadi.

Imom al Buxoriy Al-jomi' as-sahih xadislar to'plamida oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oila urf-odatlari va qadriyatlariga xurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Abdulloh raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Biz Rasululloh sallallohu alayhi va sallam birlan birga g'azot qilur erdik, hech narsamiz (xotinlarimiz) yo'q erdi. Shunda, biz. "Yo Rasulalloh, dunyodan toq o'taylikmi?"—dedik. Ul zot bizni bunday qilmoqdan qaytardilar, so'ng mahriga bir ko'ylak berib bo'lsa ham, uylanmog'imizga ruxsat berdilar. Keyin, "Ey mo'minlar, Olloh taolo sizlarga halol qilgan ne'matlarni harom qilmangizlar va tajovuz qilmangizlarki, Olloh taolo tajovuz qilguvchilarni yaxshi ko'rmaydi" degan oyati karimani bizga qiroat qildilar".[1.263]

Imom G'azzoliy yigit kishi uchun halol luqmani qo'lga kiritishga kirishish, oilasining haq va huquqini o'ylash farzand ko'rish uchun harakat qilmoq va ayollarining turli fe'llariga sabr etmoq ham ibodat turlaridan deb hisoblanadi.[4.20]

Hozirgi zamon diniy ulamolaridan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Baxtiyor oila kitobi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda diniy qadriyatlar va urf-odatlar, shariy amallar bo'yicha m'lumotlar bergan. Ushbu asarida muallif oilalarda uchrayotgan zamonaviy muammolar, sharq va g'arbdagi bo'layotgan oila masalalarini atroflicha yoritib bergan.

Farg'ona vodiysida o'tkazilgan ekspeditsiya, tadqiqotlarda geosiyosiy, noilmiy yondashuvlar ham vujudga kelgan. Farg'ona vodiysini o'rganish bo'yicha Sovet siyosati katta e'tibor qaratdi. Farg'ona vodiysini zamonaviy tadqiqotchilari, mintaqani geosiyosiy, geografik, ijtimoiy jixatdan tahlil qildilar.

V.Nalivkin va M.Nalivkinalar islom qoidalari va maxalliy madaniyat me'yorlarining ideal turlarini bayon qilar ekan, urf-odatlar va mahalliy qonun-qoidalarga aholi amal qilishiga qaramay, o'sha qoidalarning buzilish holatlarini ham izohlaydilar. Jumladan, Farg'ona vodiysida xonliklar tugatilishi va Rossiya Imperiyasi xukumronligining boshlarida ayollar Ramazonni o'tkazmaganligi, begona erkaklar bilan qorong'uda gaplashishi, turmushga chiqmasdan homilador bo'lib qolgani, fohishalik qilgani kabi illatlarni bayon qiladilar[7].

Moskva etnografi va antropologiya instituti doktori Sergey Abashin vodiya tadqiqot ishlarini olib bordi. Sovet ittifoqi tarqalishi, ittifoqdan ajralib chiqqan davlatlar orasida o'zaro chegaralar bo'linishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi.

Sergey Abashin etnologiya va antropologiya masalalari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borgan. Markaziy Osiyodagi millatchilik masalalarini o'rgangan. Farg'ona vodiysi etnik kelib chiqishi, etnik jarayonlar, etnik muammolarni o'rgangan[6].

Farg'ona vodiysi suv muammolari bo'yicha doktor Kristin Bichsel 1991 yil Sovet xokimiyatining parchalanishi sabab Markaziy Osiyo jumladan Farg'ona vodiysidagi suv muammolari va chegaralarning bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rgandi[3.58,60].

**Muhokama.** Vodiya madaniy xilma-xillik kuzatiladi. Sababi vodiyning geografik joylashuvi har xil etnik elementlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Shu nuqtai nazardan bu xududda turli tillarda (rus tili, turk tili, tojik tili kabilar) muloqot qiluvchi aholini uchratish mumkin.

Farg'ona vodiysi diniy, siyosiy maqsadlarda o'rganilgani manbaalar orqali ayon bo'ladi. Vodiyni o'rganish doim tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish uyg'otgan. Vodiyning tarixdan notinch hayot tarzi ko'pchilikni diqqat markazini egalladi.

XVII asrdagi suv toshqini, 1920 yildagi kuchli zilzila nafaqat vodiya balki butun Markaziy Osiyoga katta ta'sir o'tkazdi. Ammo so'ngi sovet davridan boshlab, eng katta muammo ijtimoiy va madaniy ziddiyat bo'ldi. SSSR davrida va parchalanish oldidan majburan ko'chirilganlar orasida ziddiyat paydo bo'ldi. 1989 yil o'zbeklar va masxeti turklari orasidagi ziddiyat, 1990 yildagi O'sh shahridagi o'zbeklar va qirg'izlar o'rtasidagi nizoli vaziyat, 1992 yildagi Namanganda diniy zo'ravonlikning avj olishi kabi masalalar katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ma'lumotlarga ko'ra 2000 yilda musulmon ekstremist guruhlar butun vodiya ko'chib o'tishga xarakat qilganlar[5.]. Keyinchalik 2005 yil 13 mayda Akromiyalar harakati Andijon viloyatida terroristik harakatlarni amalga oshirdi.

Hozirgi vaqtga kelib vodiya uch mustaqil davlatga bo'linib ketgan bo'lsada, aholi turmush-tarqidagi aloqalari, oila urf-odat va qadriyatlaridagi hamjihatlik masalalari saqlanib qolgan. O'zaro quda-andachilik, qarindoshlik, hamdo'stlik masalalari vodiya aholisini bir-biri bilan ijtimoiy munosabatlar orqali bog'lab turadi.

Farg'ona vodiysi haqida xalqaro miqyosda chop etilgan ilmiy ishlar, maqolalar bugungi kunda mintaqadagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarni yoritib berishga xarakat qiladi. Lekin hamma manbaalar ham holislik nuqtai-nazaridan bayon qilinmagan. Ko'plab ma'lumotlar geostrategik maqsadlarda ham qo'llanilgan.

**Natijalar.** Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysini kompleks rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oila urf-odat va qadriyatlari dolzarb masalaga aylandi. Farg'ona vodiysini tadbiiq etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlariga tashrifi davomida vodiya aholisi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini mustahkamlash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmogda. Viloyatlarga tashrifi davomida

Prezident bir qator xonadonlarda bo'lib, oilalarning yashash tarzi, yaratilayotgan imkoniyatlar va kamchiliklar yuzasidan suxbatlar olib bordi. Amaldagi kamchiliklar bartaraf etildi, takliflar qabul qilindi.

**Xulosa.** Mintaqa Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, deyish mumkin. Shunday qilib, vodiya mintaqasi tarixi va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan. Farg'ona vodiysi aholisi doimo o'zgaruvchan bo'lganligini ham ta'kidlash joiz. Har tomondan muhojirlar to'lqinlari kirib keldi, shu jumladan, nafaqat turkiy va eron xalqlari, balki ruslar va boshqa slavyanlar ham armanlar, nemislar va qrim tatarlari vodiya istiqomat qilib kelmoqdalar.

Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li mintaqadagi ko'plab sohalarni rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu yo'l orqali ipak, qimmatbaho toshlar, oltin va kumush taqinchoqlar, rangli shisha bezaklari, farmasevtika va bo'yoqlar, zotli otlar va turli xil mevalar olib o'tilganligi manbaalarda keltirilgan. Bundan tashqari diniy missionerlar, ustoz xunarmandlar, musiqachilar, aktyorlar va rassomlar uchun ham tajriba almashinuvchi maydon vazifasini bajargan.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий ал-жомий ас-саҳиҳ (ишонarli тўплам) Қомуслар бош таҳририяти Тошкент — 1997 263-б 3-жилд
2. Аширов Адхамжон “Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маъросимлари.” – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти., 2007. – 270 б. (30-б)
3. Bichsel, Christine. "Liquid Challenges: Contested Water in Central Asia." Sustainable Development Law & Policy 12, no. 1 (2011): 24-30, 58-60.
4. Имом Ғаззолий уйланиш одоби "Тошкент ислом университети" нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент — 2009. 20-б
5. S. Frederick Starr "Ferghana Valley The Heart of Central Asia" M.E.Sharpe Armonk, New York London, England 2011
6. С.Н.Абашин Ферганская долина Этничность Этнические процессы Этнические конфликты. Москва Наука 2004
7. В.Наливкин Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы / В. Наливкин – М.: Книга по Требованию, 2015. – 249 с.
8. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. –Тошкент: Хилол-нашр, 2018. – 528 б

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).